

## OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA BAG'RIKENGLIK VA MADANIYATLARARO MULOQOTNI SHAKLLANTIRISH

Xakimova Marxabo O'raqovna

Samarqand davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi

tel.933494160

email: marxabo\_002@icloud.com

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasasi talabalarida bag'rikenglik va madaniyatlararo muloqotni ma'naviy qadriyat sifatida shakllantirilashi ochib berilgan. Ma'naviy qadriyatlarimiz tarkibida ham bag'rikenglik va millatlararo madaniyat shakllanishi asosiy o'rinda turadi, chunki ijtimoiy va ma'naviy madaniyat barcha sohalarda asosiy qadriyat sifatida ko'riladi.

### Abstract:

This article describes the formation of tolerance and intercultural dialogue as a spiritual value among students of a higher educational institution. The formation of tolerance and interethnic culture is also a key part of our spiritual values, because social and spiritual culture is seen as a fundamental value in all areas.

### Аннотация:

В статье исследуется формирование толерантности и межкультурного диалога как духовных ценностей у студентов высшего учебного заведения. Толерантность и формирование межнациональной культуры также занимают центральное место в наших духовных ценностях, поскольку социальная и духовная культура рассматривается как основополагающая ценность во всех сферах.

**Kalit so'zlar:** ma'naviy qadriyatlar, bag'rikenglik, millatlararo madaniyat, oliy ta'lim, milliy tarbiya, til bilish, ko'p millatlik-ko'p madaniyatlik.

**Keywords:** spiritual values, tolerance, interethnic culture, higher education, national upbringing, language proficiency, multinationality-multiculturalism.

**Ключевые слова:** духовные ценности, толерантность, межнациональная культура, высшее образование, национальное воспитание, владение языком, многонациональность-поликультурность.

Mamlakatimizda ko‘plab xalqlarga tegishli bo‘lgan urf-odat va an‘analari borki ularni hurmat qilish, ularni madaniyatiga yaxshi munosabatda bo‘lish, shuningdek madaniy meroslarini oyoq osti qilmaslik va yosh avlodni ham shu ruhda tarbiyalash uchun ta‘lim muassasalarida bir jamoa, bir millat bo‘lim ta‘lim olishlarini ta‘minlashimiz lozim. Professional bilim va barcha sohada komillikka erishadigan kadrlar barcha oliy ta‘lim muassasalarining ta‘lim olishi bag‘rikenglik va muloqotlararo muloqotni iliq munosabatlar bilan yo‘lga qo‘yish muhimdir. Chunki yetuk inson millati va irqidan qat‘iy nazar bir-birini ta‘lim sohasida bo‘ladimi yoki boshqa sohada bo‘ladimi hamjihatlikda ishlashi va o‘qishi lozimligi konstitutsiyamizda ham keltirib o‘tilgan. Jumladan, Ijtimoiy birdamlik-prinsipining Yangi Konstitutsiyamizga kiritilishi O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elatlarni Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida, ularning millati, tili, dini, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi hamda jamiyatdagi mavqeyidan qat‘iy nazar, o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dastlab bag‘rikenglik tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, – insoniyatning ezgulik va adolatga asoslangan fazilatlaridan biri bo‘lib, turli madaniyat, millat, din va qarashlarning tinch-totuv yashashiga xizmat qiladi. Bugungi globalashuv sharoitida bag‘rikenglik nafaqat axloqiy qadriyat, balki jamiyat barqarorligi va rivojlanishi uchun zaruriy omil hisoblanadi. Oliy ta‘lim muassasalari talabalarida bag‘rikenglik tushunchasini ular ongida shakllantirishimiz muhim hisoblanishi, ta‘lim jarayonida har xil millat vakillari ta‘lim olishadi, talabalar turarjoyida birga yashashadi va o‘rtoqlik munosabatlarini yo‘lga qo‘yishadi. Manashu bag‘rikenglik degabi, chunki barcha millat a‘zolari boshqalarni boricha qabul qilishi va o‘rganishi talabalarda ma‘naviy qadriyatlarni shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek mamlakatimiz oliy ta‘lim tizimida xorijiy hamkor institutlari bilan talabalar almashinuvi dasturlari orqali ham boshqa millat vakillari kelishi yildan yilga ko‘paymoqda. Bu bizga til bilishga intilishimizni, turli millatlarni madaniyatini o‘rganishimiz va bag‘rikenglikni kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Boshqa millat vakili bilan muloqotga kirishib boshqalarning dunyoqarashini, fikrini, urf-odat va e‘tiqodini hurmat qilish, shuningdek, ularning huquqlarini tan olishdir. Bu fazilat insonlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va ishonchni mustahkamlaydi, turli xil ziddiyatlarning oldini oladi.

Bundan tashqari, Usmonli imperiyasining diniy bag‘rikenglik siyosati ham e‘tiborga loyiqdir. Bu davlatda musulmonlar bilan bir qatorda nasroniylar va yahudiylar ham o‘z dinlariga erkin amal qilishgan. Bag‘rikenglik sababli Usmonli davlati ko‘p asrlar davomida barqaror rivojlangan.

Talabalar o‘rtasida bag‘rikenglik va madaniyatlararo muloqot ta‘lim va tarbiya, diniy erkinlikni, madaniy xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlash, huquqiy tenglikni keng miqyosida shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Talabalar ta'lim jarayonida bir-birida ta'lim olish usullarini, bir-birini dinini hurmat qilishni, bayramlari va an'alarini birga nishonlashni, bir-biriga ijtimoiy moslashuv jarayonida qo'llab-quvvatlashni, huquqiy erkinlik va majburiyatlarini tez va oson o'rganishiga yordam beradi. Bu bizni millatimiz ma'naviy qadriyatlarining asoslarida hisoblanadi.

XXI asrda axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan bir vaqtda, xalqlarning madaniy birlashishi zamon bilan hamnafaslikda ketmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Tabir joiz bo'lsa ziyoli, hamda tillarga qunt bilan yondashgan, chet elliklar bilan har sohada fikr almasha oladigan, vatanparvar, yurti va vatandoshlari manfaatlarini yuksak bilim, iroda bilan asrab va rivojlantirishga bel bog'lagan kadrlargina juda muhim global masalalarda yechim topib, millatimizni dunyoga tanita oladi. O'zbekistonda chet tillarni o'rgatish sohasi davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Turli konfessiyalar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat va bag'rikenglikka asoslangan

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida bag'rikenglik va millatlararo muloqotmunosabatlarini shakllantirishimiz bugungi kunda oliy ta'lim tashkilotlarini xalqarolashuvi, xorijiy hamkorlar bilan o'quv dasturlar, talabalar va professor-o'qituvchilarni tajriba almashish va malakasini oshirish kabi almashinov dasturlarini jadallashishiga ham juda kata yordam beradi. Natijada, mamlakatimiz oliy ta'lim sohasi xaqaro reytingi yuqori bo'lgan ta'lim tashkilotlari darajasiga jadallik bilan ko'tariladi. Shuningdek, bizning ham talabalarimiz ham bemalol til o'rganish jihatdan ham boshqa mamlakatlar madaniyatini o'rganish ihatdan ham turli to'siq va qiyinchiliklarni oson va yengil yengib o'tishadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan qanuni, 1998 yil 1 mayda yangi tahriri tasdiqlangan.
2. Maxmudova M. Xalq pedagogikasi mazmuni asosida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimi. Dis. ... ped. fan. d-ri. – T., 2007.
3. Imomnazarov M., Eshmuhammedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. – T: Toshkent islom universiteti.
4. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. – T.: Istiqlof, 2009.
5. Ibrohimjon Ahmadjonov, "Hidoya" o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi o'qituvchisi, Bag'rikenglik – jamiyatning barqarorligi va birligi kafolati.(maqola).